



INTERCULTURAL STEREOTYPES IN NAMANGAN REGION AND THEIR SOCIOLOGICAL ANALYSIS

Anora Akhmadjonova

Researcher

Namangan State University

a.akhmadjonova@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Stereotype, social consciousness, expert survey, ethnic cooperation, national tolerance, ethnic groups, national values, traditions, national symbols, dialect.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the sociological characteristics of interethnic relations, integration processes, and forms of cooperation between Uzbek and Kyrgyz ethnic groups in the Namangan region. Through expert surveys, the study examines how different social groups integrate culturally, economically, and communicatively, the factors that shape mutual understanding and cooperation, as well as the stereotypes and social barriers influencing these processes.

NAMANGAN VILOYATIDAGI MADANIYATLARARO STEREOTIPLAR VA ULARNING SOTIOLOGIK TAHLILI

Anora Axmadjonova

Namangan davlat univeristeti tadqiqotchi

a.akhmadjonova@mail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Stereotip, ijtimoiy ong, expert so'rov, etnik hamkorlik, milliy bag'rikenglik, etnik guruhlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy ramz, sheva.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatidagi o'zbek va qirg'iz etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, integratsiya jarayonlari va hamkorlik shakllarining sotsiologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Expert so'rov orqali turli ijtimoiy guruhlarining madaniy, iqtisodiy va kommunikativ jihatdan qanday integratsiyalashuvi, o'zaro tushunish va hamkorlikni shakllantiruvchi omillar, shuningdek, bu jarayonlarga ta'sir etuvchi

stereotiplar va ijtimoiy to'riqlar masalalari
ko'rib chiqiladi.

МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Анора Ахмаджонова

Исследователь

Наманганский государственный университет

a.akhmadjonova@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стереотип, общественное сознание, экспертный опрос, этническое сотрудничество, национальная толерантность, этнические группы, национальные ценности, традиции, национальные символы, диалект.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социологические особенности межэтнических отношений, процессов интеграции и форм сотрудничества между узбекскими и киргизскими этническими группами в Наманганской области. На основе экспертного опроса анализируются культурные, экономические и коммуникативные аспекты интеграции различных социальных групп, факторы, формирующие взаимопонимание и сотрудничество, а также стереотипы и социальные барьеры, влияющие на данные процессы.

Kirish. Stereotiplar har qanday jamiyatda ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida shakllanadi va kishilarning dunyoni idrok etishida, ijtimoiy guruhlariga nisbatan munosabat bildirishida muhim rol o'ynaydi. Ular ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan umumlashma, qadriyat, tasavvur va baholashlar tizimini ifodalaydi. Shu jihatdan, stereotiplar jamiyatdagi ijtimoiy muhitni anglash, tushunish va unga moslashishda insonlarga psixologik tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda jahon miqyosida millatlararo munosabatlarning murakkablashuvi, ko'p madaniyatli jamiyatlarning kengayib borishi etnik guruhlar o'rtasida integratsiya va o'zaro hamkorlik muammolarini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, globallashuv, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari natijasida ijtimoiy tuzilmalarda yuzaga kelayotgan xilma-xillik turli etnik guruhlar o'rtasida barqaror va bag'rikeng munosabatlarni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Dunyo bo'ylab juda ko'p xalqlar mavjud bo'lib, bir davlat tarkibida turli millatlar ildiz otib, birlashib kelayotgani insoniyat tarixidan hozirgacha ayondir. Ya'ni etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar yagon davlat ostida birlashib rivojlanib kelmoqda. Xususan mamlakatimizda ham etnik

barqarorlikni ta'minlash, milliy bag'rikenglik tushunchalarini yoshlar ongiga singdirish va o'zaro hurmat o'rnatish eng asosiy vazifalardan biri bo'lgandir. Shu sababdan 2020-yil 9-iyunda Prezident O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji haqida fikr bildirar ekan, shunday dedi: "Biz millatlararo hamkorlikni mustahkamlash va etnik xalqlar o'rtasida do'stlikni rivojlantirish orqali, umumiy manfaatlar yo'lida birlashishimiz lozim. Har bir xalq, o'z qadr-qimmatiga ega, va buning asosi sifatida o'zaro to'g'ridan-to'g'ri hamjihatlikni yuritamiz" [1]. Shavkat Mirziyoyevning asarlarida va nutqlarida etnik xalqlar va millatlar totuvligi masalalariga oid ko'plab muhim fikrlar mavjud. Ularning o'zaro hurmati, hamjihatligiga va madaniyati rivojlanishiga oid g'oyalari, O'zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, jamoalarda etnik hamkorlik turli etnik guruhlarining o'zaro tushinishi, o'zaro hurmat va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik jarayonidir. Bu hodisa ayniqsa, zamonaviy va ko'p madaniyatli jamiyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega, buning sababi esa ushbu jamoada xilma-xillik, ijtimoiy totuvlik va jamoaviy taraqqiyot uchun turli qiyinchiliklar, hamda imkoniyatlar yuzaga keladi. Juda ko'plab yevropa olimlari tomonidan identity, hamkorlik va o'ziga xoslik tushunchalariga oid turli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Hindistonlik iqtisodchi va faylasuf Amartya Sen ushbu mavzu yuzasidan dastlabki qarashlarini berib borgan. Uning "Identity va zo'ravonlik" asarida o'ziga xoslik ichidagi xilma-xillikni tan olish muhimligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, etnik hamkorlik ziddiyatli o'ziga xosliklar chegarasidan oshib, muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Senning plyuralizmga e'tibori etnik guruhlar o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni kuchaytirishga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Turli tadqiqot va izlanishlarimiz davomida, Namangan viloyatining ayrim hududlari Kosonsoy, Pop va Chust tumanlarining tarixiy-etnografik jihatdan turli millat vakillarining birdamlik va totuvlik asosida yashashayotganliklarini guvohi bo'ldik. Expert so'rov metodi orqali tumalarning etnik tuzilishi va ular o'rtasidagi birdamlik, hamkorlik xususiyatlari orqali stereotiplar ta'sirini o'rganishga harakat qildik. Birinchi o'rinda Kosonsoy tumani misolida oladigan bo'lsak, Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bolib, shimolda Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati Ala-buqa tumani bilan, sharqdan Namangan viloyati Yangiqur'gon tumani bilan, G'arbdan Chust tumani bilan va janubda Namangan shahri va Toraqorg'on tumanlari bilan chegaradosh bolib, Qirg'iziston Respublikasi bilan umumiy chegara uzunligi 47,5 km. Tumandan 15 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Aholining umumiy miqdorida ozbeklarning salmo'gi 37,3 foiz, tojiklar 60,9 foiz, ruslar 0,06 foiz, qirg'izlar 0,9 foiz, tatarlar 0,1 qolgan 0,6 foizini boshqa millatlar tashkil etadi. Aholining zichligi 1 kv. kilometrda 347 kishi to'g'ri keladi. Kosonsoy tumani asosan sug'oriladigan dehqonchilik regionidir. Tuman qishloq xojaligini asosiy tarmoq - paxtachilik va g'allachilik tashkil etadi. Shuningdek,

boğdorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik sohalari ham keng rivojlanib bormoqda [3]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, Kosonsoy tumanining asosiy qismi tojiklarni tashkil etadi, bundan kelib chiqqan holatda, tuman aholisi o'z hududlarida yoki tumandoshlari bilan o'zaro tojik tilida muloqot qilishadi. Expert so'rovlarimiz orqali tuman haqida quyidagicha ma'lumotga ega bo'ldik. "Tumanda asosan tojiklar istiqomad qilishadi, faqatgina ayrim qismlarida o'zbek mahallalari mavjud bo'lib, tillari ham o'zbek tilida so'zlashishadi. Tergachi, chindovul, Quqboy, Chóngbosh, Tashlama hududlarida o'zbekcha so'zlashishadi. Tojiklar tumandan tashqarida asosan o'zbek tilida gaplashishadi, chunki tojik tilida muloqot qilishga tortinishadi. Expertlar tomonidan ularga nisbatan "Ikki tilda gaplashuvchi bir millat" deya ta'rif berildi. Darhaqiqat ularning o'zbeklar bilan qorishib ketganligidan, deyarli farqlash juda qiyin. "Olmazor, Panixon, Qizilbayroq, Go'romon va Komuna hududlarida asosan tojiklar istiqomad qilishadi, ularning so'zlashuv tili ham tojik tilida bo'lib, o'zbek tilida ham erkin muloqot qila olishadi. Lekin ayrim hududdagi aholi o'zbek tilida gaplashishga ehtiyoji bo'lmaganligi uchun, qishloqdan tashqari hududda faoliyat olib bormagani uchun ham faqatgina tojik tilidagina so'zlasha oladi" [4].

Tahlil va natijalar. Shuningdek, tojik tilining ham turli shevalari mavjud bo'lib ayrim hududlardagi shevalariga hatto tojiklar ham tushinishi qiyin. Masalan, Pop tumanida yashovchi tojiklar bilan Kosonsoy hududidagi tojiklarning shevalari turlicha. Buning sababi geografik joylashuv hisoblanadi. Ya'ni, Kosonsoy tumani Qirg'ziston bilan chegaradosh bo'lib, asosam o'sha hududlar bilan aloqa kuchli, Pop tumani esa Tojikiston hududiga yaqin joylashgan va tarixan o'zaro aloqalar tufayli ikki tuman hududida yashovchi tojiklarning shevalari har xil ammo adabiy tillarida so'zlashishsa bir birlarini bemalol tushinishadi [5]. Demak, asosan Pop, Chust va Kosonsoy tumanlarida etnik xalqlarning tarixiy jihatdan turli millat birlashuvi natijasida hozirgi holatga kelganligini ko'rishimiz mumkin ekan. Bular qadimiy tumanlar qatoriga kirgan bo'lib tarixiy obidalaridan va qadamjolardan madaniylashib kelgan xalqlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, Pop tumani ham boy tarixga ega tuman sifatida ko'riladi. Tuman haqida so'z yuritilganda, aholi tog'li va adir hududlarida istiqomat qilganligi sababli, qishloqlar orasi unchalik ham yaqin emas. Rus sharqshunosi A.N.Bernshtam "Qadimgi Farg'ona" asarida bu fikrni quvvatlab: "Ehtimol, hozirgi Pop qishlog'ining nomi qadimiy, hatto arablargacha ham mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin" - deb yozib qoldirgan. "Pop" atamasining paydo bo'lishi haqida xalq orasidagi rivoyatlar va afsonalar hamda shevadagi so'zlarda ham ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Tilshunos tadqiqotchi O.Sharipov bu borada shunday deydi: "Pop aholisi o'zining tarixi haqida quyidagicha fikr yuritadi: Xitoy askarlari shu yerga kelgan ekanlar. Ulardan besh-o'ntasi qarib qolibmiz deb shu yerda qolgan ekanlar. Ular oldingi uyg'urlardan ekan. Bir kuni Pop soyiga chiqib qarasa, yaxshi joy ekan. Ular biz "bop" joy ekan, deb qolgan ekanlar" [6]. Ya'ni tuman nomining kelib

chiqishi haqida turli farazlar va ma'lumotlar mavjud, ba'zi manbalarda: - "Pop" atamasi arabcha "darvoza", "eshik" ma'nosini anglatadi, - deb hisoblashgan. Ular Pop shahri vodiyning g'arb tomonidan kirib kelishdagi birinchi shahar, deb hisoblaydi [7]. Ta'kidlash lozimki, rostdan ham poytaxtimiz Toshkent va vodiy o'rtasidagi katta ko'prik sifatida, Pop tumanini ko'rishimiz mumkin, chunki katta tog' tizmalaridan kirib kelganda vodiy tomonga olib kiruvchi birinchi tuman hisoblanadi.

Qirg'iz xalqining Namangan viloyatining ko'plab hududlarida istiqomad qilishadi. Jumladan Uchqo'rg'on, Chortoq va Norin tumani hududlarida tarqalgan bo'lib, ba'zi hududlarda mahalla bo'lib istiqomad qilishsa, ayrimlarida esa tarqoq holda yashaydilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, tojiklarning deyarli barcha urf-odatlar va marosimlari o'zbeklar o'rtasidagi farq bilinmaydi, chunki, tojiklar tarixan chuqur ildizga ega bo'lib, o'zbeklar bilan shunday qovishib ketganki, ular o'rtasidagi birgina so'zlashuv tili ajratib turadi. Lekin qirg'iz xalqi bilan solishtirganda esa, umuman farqli tomonlar juda ko'p to urf-odat, kiyinishdan tortib, so'zlashuv tili va madaniy hayotigacha.

Qirg'iz xalqi o'zining boy madaniyati va urf-odatlar bilan ajralib turadi. Qirg'iz va o'zbek tillaridagi so'zlarning farqlanishi, etnosotsiologik tadqiqotlarda dolzarb ahamiyatga ega. Misol uchun, qirg'iz tilida "qo'noq berish" so'zi mehmon qilish ma'nosini anglatadi. Etnik va madaniy jihatdan qirg'izlarni o'zbekistonliklardan ajratib turadigan shunday so'zlar ko'pdir. Boshqa misolda, "ejey" (oya, opa), "ayash" (yanga), "ena" (acha) so'zlari, qirg'izlarning oilaviy, ijtimoiy tuzilishidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu farqlanishlar, tillarning o'zaro ta'siri va o'zaro madaniy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Lekin ularning urf-odatlarining xilma-xilligi va noodatliyligi bilan o'zbeklarni hayratga sola olgan:

- "Bilakuzuk taqishi doimiy odatlari va bu esa belgi vazifasini bajaradi, ya'ni bilakuzuk ayollarning yoshini ifodalab keladi. Buni turli naqshlar va dizaynlari orqali ma'lum yoshini ifodalash mumkin ekan;

- Sochlari uchiga tosh taqishlariyam o'zgacha odatlaridan biridir. Boshqa hududlarda esa toshni o'rniga pilik deb nomlangan qadimiy uslubdagi paxtani qo'shib o'rish odati ham o'xshashdir" [8]. Bunday odat o'zbek xalqida ham boshqacha ko'rinishda mavjud bo'lib, asosan katta yoshlilar sochlarini o'rib, uchlariga paxtadan "pilig" ulab oladilar. Bu sochlarini yoyilib ketmasliklari uchun kerak bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan paxtadek oq sochlariga ulangan paxta sochlarini uzunroq qilib ko'rsatadi, hatta ulangani bilinmaydi ham. Yoshlar uchun esa sochlar uchiga maxsus "popuglar" ulab olish milliylik ramzi sifatida qaralgan.

- "Namangan hududidagi qirg'izlar doimiy ravishda milliy kiyimlar kiyishi, kundalik kiyimlarida hech bo'lmaganda qirg'iz xalqiga xos naqsh va gullari ham aks ettiriladi. Xatto turli matoli buyumlari gilam yopinchiq va belbog'larida ham eski uslubdagi naqshlari ifodalanishi ham

alohida e'tiborga loyiqdir. Bu ularning urf-odatlarini qadrlashi va yaxshi saqlanganligining yaqqol ifodasidir.

- Qirg'iz xalqlarining qadimdan saqlanib qolgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan odati bu yetti avlod ya'ni yetti urug'ini bilishi majburiy hisoblangan. Bunda har bir oila boshi farzandlariga yetti avlod, ota-bobolarining ismlari bilan tanishtirib, yoddan aytishga o'rgatadilar. Yosh bolalardan kim ekanligi so'ralsa, yetti urug'ini bilmasa bu oilasi uchun uyat hisoblangan. Bu odat yillar davomida xalqning tub tubiga singib ketganki, qirg'iz xalqi an'analarini va qadriyatlarini yaxshi saqlab kelishlariga yaqqol misoldir" [9].

- Qirg'iz xalqining to'y marosimlari ham o'zbeklardan ancha farqli tomonlari bor. "To'y marosimlarini o'tkazishda, kelin va kuyovning alanga, o't atrofida aylanishi hozirgacha saqlanib kelgan. Buning ma'nosi kelin va kuyov bir birlariga olovdek mehr-muhabbatli bo'lishlarini anglatgan" [10]. Hozirda Namangan viloyatining ba'zi hududlarida ham ushbu udumni ado etishlariga guvohi bo'lishimiz mumkin. To'y marosimlarida milliy laparlar va boshqa qo'shiqlarni milliy cholg'u asboblari orqali ijro etishlari, ayollar uchun an'ana sifatida saqlanib qolgan. Bu turdagi lapar aytishlar namanganning ko'plab hududlarida ham hali hamon saqlanib qolgan.

- Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'zbek xalqi o'zining tantiligi, mehmondo'stligi bilan tanilgan bo'lsa, qirg'iz xalqi ham bu borada hech ham ortda qolmaydi. Ularning mehmonlarga munosabati juda ham yuqori bo'lishligi, boshqacha ko'rinishda mavjud bo'lib, asosan katta yoshlilar sochlarini o'rib, uchlariga paxtadan "pilig" ulab oladilar. Bu sochlarini yoyilib ketmasliklari uchun kerak bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan paxtadek oq sochlariga ulangan paxta sochlarini uzunroq qilib ko'rsatadi, hatta ulangani bilinmaydi ham. Yoshlar uchun esa sochlar uchiga maxsus "popuglar" ulab olish milliylik ramzi sifatida qaralgan.

- "Namangan hududidagi qirg'izlar doimiy ravishda milliy kiyimlar kiyishi, kundalik kiyimlarida hech bo'lmaganda qirg'iz xalqiga xos naqsh va gullari ham aks ettiriladi. Xatto turli matoli buyumlari gilam yopinchiq va belbog'larida ham eski uslubdagi naqshlari ifodalanishi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bu ularning urf-odatlarini qadrlashi va yaxshi saqlanganligining yaqqol ifodasidir.

- Qirg'iz xalqlarining qadimdan saqlanib qolgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan odati bu yetti avlod ya'ni yetti urug'ini bilishi majburiy hisoblangan. Bunda har bir oila boshi farzandlariga yetti avlod, ota-bobolarining ismlari bilan tanishtirib, yoddan aytishga o'rgatadilar. Yosh bolalardan kim ekanligi so'ralsa, yetti urug'ini bilmasa bu oilasi uchun uyat hisoblangan. Bu odat yillar davomida xalqning tub tubiga singib ketganki, qirg'iz xalqi an'analarini va qadriyatlarini yaxshi saqlab kelishlariga yaqqol misoldir" [11].

- Qirg'iz xalqining to'y marosimlari ham o'zbeklardan ancha farqli tomonlari bor. "To'y marosimlarini o'tkazishda, kelin va kuyovning alanga, o't atrofida aylanishi hozirgacha saqlanib kelgan. Buning ma'nosi kelin va kuyov bir birlariga olovdek mehr-muhabbatli bo'lishlarini anglatgan" [12]. Hozirda Namangan viloyatining ba'zi hududlarida ham ushbu udumni ado etishlariga guvohi bo'lishimiz mumkin. To'y marosimlarida milliy laparlar va boshqa qo'shiqlarni milliy cholg'u asboblari orqali ijro etishlari, ayollar uchun an'ana sifatida saqlanib qolgan. Bu turdagi lapar aytishlar namanganning ko'plab hududlarida ham hali hamon saqlanib qolgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'zbek xalqi o'zinig tantiligi, mehmondo'stligi bilan tanilgan bo'lsa, qirg'iz xalqi ham bu borada hech ham ortda qolmaydi. Ularning mehmonlarga munosabati juda ham yuqori bo'lishligi, turli noz-ne'matlar va go'shtli taomlari bilan mehmonlarni xursand qilishlariga qoyil qolsa bo'ladi. Ularda mehmon qilishni qo'noq berish deb aytadilar va Qirg'izlar asosan tog'li hududlarda yashashi sababli, ular asosan chorvachilik, ovchilik bilan shug'illanib kelganlar. Asosan chodirlarda istiqomat qilishining sababi tog'li hududlarda yashashga qulay bo'lganligi, issiq kunlarda chodir salqin bo'lishi, qishda esa issiq tutishi juda yaxshi qulayliklarni yaratadi.

"Chodirlarining tuzilishi ham, ustiga yopilgan matolarning naqshi, guli ham o'z xalqining milliyligini aks ettirib turadi. Ularning yashash hududlari ham o'zlaining fe'l atvorlariga ta'sir qilgan, ya'ni tog'lardek savlatlari va kerikligi ham o'z navbatida sezilib turadi. Xatto bu xususiyatlari o'z maqollarida ham ifodalangan, qirg'iz keki 40 yil, g'ururli va mag'rur bo'lishlari haqida urg'u berilgan. Shuningdek, tabiatga bo'lgan hurmat va e'zozlash ularning tog'li hududlar va adirlarda qo'nim topganligi natijasida, turli o'simliklar, o'rmonlar va hayvonlarga juda samimiy munosabatda bo'lishadi" [13].

Qirg'iz xalqi o'zining urf-odatlarini va an'analari katta ahamiyat beradi. Masalan, bilakuzuk taqish an'anasidagi belgi vazifasi, qirg'iz ayollarining yoshini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Turli naqshlar va dizaynlar orqali bu belgi ko'rsatiladi. Shuningdek, sochlarning uchiga tosh taqish ham qadimiy urf-odatlardan biridir. Bunday urf-odatlar, o'zbekistonliklar orasida ham mavjud bo'lsa-da, ularning yetakchi muhim va ajralib turadigan xususiyati bor.

Xulosa. Jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi etnik integratsiyaning asosiy tendensiyalari, uni shakllantiruvchi omillar, guruhlararo kommunikatsiya vositalari va madaniy murosaga erishish yo'llari sotsiologik tahlil qilinadi. Shu bilan birga, integratsiya jarayoniga ta'sir etuvchi stereotiplar, ijtimoiy to'siqlar va ularni bartaraf etish strategiyalari ham yoritiladi. Bu jarayonni chuqur o'rganish orqali etnik guruhlar o'rtasida ijtimoiy birdamlikni ta'minlash, barqaror jamiyat qurish yo'llarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. (2020). "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivoji haqida ma'ruza". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. Sen, A. (2006). Identity and Violence: The Illusion of Destiny. W.W. Norton & Company. p 154.
3. <https://www.kosonsoy.uz/index.php/tuman-haqida/umumij-malumotlar>
4. Expert so'rovidan olindi
5. Sharipov O. O'zbek tilining Pop shevasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 1962. – B: 10.
6. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston. 1978. – B: 101.
7. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston. 1978. – B: 101.
8. Expert so'rovidan olindi
9. Sharipov O. O'zbek tilining Pop shevasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 1962. – B: 10.
10. Содиржонов М. Yoshlar kundalik hayotining virtuallashuv sabablari va omillari (sotsiologik tahlil) //in Library. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 36-40.
11. Содиржонов М. Yoshlar kundalik hayotining virtuallashuv sabablari va omillari (sotsiologik tahlil) //in Library. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 36-40.
12. Содиржонов М. Ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xolatini inson kapitali shakllanishidagi o'rni (farg'ona vodiysi misolida) / М. Содиржонов. – in Library. – 2023. – № 2. – С. 214-9.
13. Содиржонов М. Анализ развития человеческого капитала в этносоциологических процессах ферганской долины / М. Содиржонов. – in Library. – 2023. – № 1. – С. 195-03.
14. Sodirjonov, Mukhriddin Makhamadaminovich. "EDUCATION AS THE MOST IMPORTANT FACTOR OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 4 (2020): 901-905.
15. SODIRJONOV, Muxriddin. "KUTUBXONALAR INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM INSTITUT SIFATIDA." Тараққиёт тадқиқотлари: илмий-амалий анжуманлар материаллари тўплами 2.16 (2024): 18-21.
16. М Содиржонов АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭТНИК МУНОСАБАТЛАР ВА ЖАРАЁНЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ // Academic research in educational sciences. 2024. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ahborotlashgan-zhamiyatda-etnik-munosabatlar-va-zharayonlarning-yoritilishi> (дата обращения: 14.12.2024).